



O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI



Qadrlı vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘pmillatli butun xalqimizni 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zining chuqur hurmatim va ezu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda barcha huquq va erkinliklarimiz, yurtimizdagi tinchlik

va barqarorlik, birlik va hamjihatlik, ortga qaytmas demokratik islohotlarimiz kafolati bo‘lgan Asosiy qonunimizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Hech shubhasiz, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkuri hamda yuksak xohish-irodasining ifodasi bo‘lgan Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan qoida va tamoyillar Yangi

O‘zbekistonni barpo etishda barchamiz uchun beqiyos kuch-g‘ayrat, ishonch va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, avvalo, yanada keng vakolat va mas‘uliyatga ega bo‘lgan milliy parlamentimiz hamda ilk marta mahalliy Kengashlar deputatlari orasidan saylangan raislar boshchilik qilayotgan viloyat Kengashlari, jamiyat boshqaruvida

o‘mi va nufuzi tobora ortib borayotgan mahalla instituti faoliyati misolida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi konstitutsiyaviy qoidaning amaliy tasdig‘ini ko‘ramiz.

Ayniqsa, yangi parlamentimiz tomonidan joriy yilda sudlar faoliyati hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirishga oid qonunlar hamda yurtimizda do‘stlik, hamjihatlik muhitini mustahkamlash, inklyuziv jamiyat, yoshlar, xotin-qizlar masalalari, kam ta‘minlangan insonlar manfaatlarini himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash bo‘yicha ko‘plab muhim qarorlar qabul qilinganini ta‘kidlash lozim.

Mahalliy kengashlar ham o‘z hududlaridagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha faol ish olib bormoqda. Ular tomonidan o‘tgan davrda 25 mingdan ziyod masala muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilingan, mansabdor shaxslarga 14 mingga yaqin deputatlik so‘rovlari yuborilgan ham shundan dalolat beradi.

Vakillik organlarini chinakam xalq minbari, xalq ovozigacha aylantirishga qaratilgan islohotlarimizning davomi sifatida 2026-yilning 1-yanvaridan tuman va shaharlarda ham hokim va Kengash raislari vazifalarini alohida ajratish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Bir so‘z bilan aytganda, xalq hokimiyatchiligi, vakillik demokratiyasi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi kabi konstitutsiyaviy prinsiplarga bundan buyon ham sodiq qolib, ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizni yanada qat‘iy davom ettiramiz.

Hurmatli do‘stlar!

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson qadri, aholining huquq va manfaatlarini ta‘minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb

etmoqda. **“Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!”** degan ezu g‘oya asosida o‘tkazilayotgan bu yilgi bayram tadbirlari orqali shu yo‘lda erishgan yutuqlarimiz chuqur tahlil qilinib, yangi va dolzarb vazifalar belgilab olinmoqda.

Keyingi vaqtda barcha soha va tarmoqlarda qo‘lga kiritayotgan natijalarimizga shu nuqtayi nazardan baho berar ekanmiz, ularning zahirida, eng avvalo, insonparvarlik va xalqparvarlik tamoyillari mujassam ekanini va ular o‘z samarasini berayotganini alohida qayd etish o‘rinlidir. Misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, joriy yilda aholi jon boshiga daromad 3 ming 500 dollari tashkil etgani, maktabgacha ta‘limda qamrov 78 foiz, oliy ta‘limda esa 42 foizga yetgani, odamlarimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaygani va boshqa raqamlarni keltirish mumkin.

Konstitutsiyamizga asosan davlat zimmasigayuklatilgan ijtimoiy-majburiyatlarni bajarish hamda yurtimizda ijtimoiy davlat barpo etish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1 million nafardan ziyod fuqaro kambag‘allikdan chiqarildi, kambag‘allik darajasi 6,6 foizga tushirildi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini ta‘minlash, mustahkam huquqiy tizim va ochiq jamiyat barpo etish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarimiz dunyo jamoatchiligi tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Masalan, 2025-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O‘zbekiston 19 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng dalil rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd etildi. Global innovatsiya indeksida yurtimiz Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha kuchli uchlikdan joy oldi. “S&P”, “Fitch” va “Moody’s” kabi nufuzli xalqaro agentliklar tomonidan O‘zbekistonning suveren kredit reytingi oshirildi.

Nufuzli xalqaro anjuman — UNESCO Bosh konferensiyasi so‘nggi 40-yil davomida birinchi marta Parijdan tashqarida, ya‘ni, Samarqandda muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ham jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e‘tirof etilmoqda.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi kunda biz Konstitutsiyamizning har bir normasini davlat va jamiyat hayotida amaliy faoliyat mezoniga aylantirishimiz zarur. Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egalari etib tarbiyalash oldimizda turgan g‘oyat muhim vazifadir.

Faqat Konstitutsiya va qonunlarimizga chuqur hurmat, puxta huquqiy bilim va amaliy tajriba asosidagina biz davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib, Vatan va xalq oldidagi farzandlik burchimizni sharafla ado eta olamiz. Shundagina Bosh qonunimizning hayotbaxsh kuchi, bunyodkorlik salohiyati amalda yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Barchamiz uchun milliy mustaqilligimiz, g‘urur va iftixorimiz timsoli bo‘lgan Konstitutsiyamiz sharaflanadigan ushbu quvonchli ayyom munosabati bilan sizlarni yana bir chin dildan tabriklayman.

Siz, aziz yurtdoshlarimizga sihat-salomatlik, baxt va omad, oilalarimizga tinchlik-totuvlik va farovonlik tilayman.

Konstitutsiyamiz va barcha yutuqlarimizning ijodkori bo‘lgan mard va olijanob xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33-yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida **“Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”**gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan **615** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **220** nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, **123** nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **97** nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **175** nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

O‘ZA

Afv etilganlarning **9** nafari chet el fuqarolari, **29** nafari ayol, **23** nafari **60** yoshdan oshgan erkaklar, **264** nafari yoshlar (shulardan, **2** nafari voyaga yetmaganlar) hamda **9** nafari taqsiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

KONSTITUTSIYA — INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA

adolat garovi!

ORTGA QAYTMAS DEMOKRATIK ISLOHOTLARIMIZ KAFOLATI

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 33 yilligi munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda parlament a‘zolari, vazirlik va idoralar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tantanali tadbir avvalida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari — Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Qayd etilganidek, islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi kunda biz Konstitutsiyamizning har bir normasini davlat va jamiyat hayotida amaliy faoliyat mezoniga aylantirishimiz zarur. Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egalari etib tarbiyalash oldimizda turgan g‘oyat muhim vazifadir.

“Faqat Konstitutsiya va qonunlarimizga chuqur hurmat, puxta huquqiy bilim va amaliy tajriba asosidagina biz davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib, Vatan va xalq oldidagi farzandlik burchimizni sharafla ado eta olamiz. Shundagina Bosh qonunimizning hayotbaxsh kuchi,

bunyodkorlik salohiyati amalda yanada yorqin namoyon bo‘ladi”, deyiladi davlatimiz rahbari tabrigida.

Konstitutsiyamiz mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashning huquqiy asosidir. Zero, yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik ruhiga mos ravishda yangilangan Asosiy qonuni xalqaro demokratik standartlardan kelib chiqib qabul qilingani, unda inson manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yilgani ushbu asosni yanada mustahkamlaydi.

Yurtimizda Prezidentimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy davlat siyosati yurtdoshlarimizning munosib hayoti va farovon kelajagini ta‘minlashga qaratilgan.

Davomi 2-betda

MILLIY DAVLATCHILIK, TARIXIY TAJRIBAMIZ IN‘IKOSI, XALQIMIZ IRODASINING YORQIN IFODASI

Konstitutsiyaviy qonunchilik tahlilchilari birinchi navbatda o‘rganadigan masala

Konstitutsiya qabul

qilinishida xalqning ishtiroki, fuqarolarning manfaatlari, fikrlari qanchalik ifoda etilib, jamiyat va davlatning rivojlantirilishida inobatga olinishi darajasidir.

Davomi 4-betda



“YASHIL” VA YANGICHA MODELDAgi
ENERGETIKA SARI DADIL QADAM

2



ORTGA QAYTMAS DEMOKRATIK ISLOHOTLARIMIZ KAFOLATI

Boshlanishi 1-betda

“Inson qadri uchun” tamoyili esa hayotning barcha jabhalarida o‘z ifodasini topmoqda. O‘tgan davrda Bosh qonunimiz mustaqilligimizning ramzi bo‘libgina qolmay, har bir fuqaro uchun imkoniyat va ishonch manbai sifatida namoyon bo‘ldi. Qonunlar orqali amalga oshirilgan o‘zgarishlar adolat mezonini sifatida aniq natija bermoqda hamda xalq bilan davlat o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlamoqda.



Mintaqamizda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy davlatchilik an‘analari, xalqimizning adolat, insof va hurmat kabi ulug‘ qadriyatlariga tayangan hayotiy falsafasi bugungi kunda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ma‘naviy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tarixiy va o‘zgarmas tamoyillar davlat boshqaruvida, jamiyat hayotida inson huquqlari, sha‘ni va qadr-qimmatini ustuvor bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Mana shu tafakkur hamda xalqimizning tarixiy yuksak huquqiy ongi bugungi kun islohotlari ruhiniyat bilan mushtarakdir.

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bosh maqsadi — jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish, inson huquqlari va erkinliklarini samarali ta‘minlash, shuningdek, Bosh qonunimizda belgilangan konstitutsiyaviy prinsiplarni hayotga tatbiq etishdan iborat.

Xalqimiz ardog‘idagi san‘atkorlarning musiqiy chiqishlari bayram tadbiriga ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
O‘za suratlari.

9-dekabr — Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING XALQARO STANDARTLARI: QONUN USTUVOR, JAZO MUQARRAR

Korrupsiya jamiyat va davlatga keng ko‘lamli vayronkor ta‘sir ko‘rsatadigan yashirin xavfdir. U demokratiya, qonun ustuvorligi va bozor iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi hamda inson huquqlarining buzilishiga olib keladi. Korrupsiya oqibatida aholining farovonligi, yashash darajasi sifati pasayib, insoniyat xavfsizligiga oid tahdidlar keng tarqaladi.



Rustam ATOVULLOYEV,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi bosh yuriskonsulti

Ushbu zararli illat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, zaif qatlamlariga ko‘proq ziyon yetkazadi. Chunki u dastlab mamlakatdagi rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larga chang soladi, hukumatlarni esa asosiy xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum qiladi. Korrupsiya past iqtisodiy ko‘rsatkichlarning asosiy sabablaridan biri, kambag‘allikni qisqartirish va rivojlanish yo‘lidagi jiddiy to‘siqdir.

Har yili dunyo bo‘ylab korrupsiya sababli taxminan 2,6 trillion dollar pul o‘g‘irlanadi. Bu butun dunyo YIMning 5 foizidan ortig‘iga teng. BMT Taraqqiyot dasturiga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlar korrupsiya oqibatida rasmiy rivojlanish dasturlari orqali olgan yordamdan ko‘ra o‘n baravar ko‘proq pul yo‘qotadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash haqida so‘z borganda, shubhasiz, dunyo hamjamiyatining ushbu sohadagi “bosh qonuni” bo‘lgan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi esga olinadi. Meksikada 2003-yil 9-dekabrda bo‘lib o‘tgan konferensiyada BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-yil 31-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan) imzolash uchun ochiq deb e‘lon qilindi hamda bugungi kunga qadar dunyoning 192 ta davlati unga qo‘shilgan.

BMT tomonidan insonlarga korrupsiya shunchaki maishiy muammo emas, balki qashshoqlik, siyosiy beqarorlik va jinoyatchilikning asosiy ildizi ekanini eslatish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirish, shuningdek, davlat organlari, xususiy sektor vakillari, nodavlat tashkilotlar va oddiy fuqarolarni korrupsiyaga qarshi birlashtirish maqsadida 2004-yildan boshlab 9-dekabr butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni sifatida nishonlanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi konvensiya qabul qilinishi xalqaro hamjamiyat korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qat‘iy bel bog‘laganini aniq ko‘rsatdi. Konvensiya halollik, qonun ustuvorligini hurmat qilish, rivojlanish jarayonida hisobdorlik va shaffoflikni ta‘minlash hamda dunyoni hamma uchun yanada yaxshilashga intilish kabi asosiy qadriyatlarining muhimligini tasdiqlaydi.

Konvensiya mamlakatlar o‘zlarining korrupsiyaga qarshi milliy qonunchiligini takomillashtirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan standartlar, choralar va ko‘rsatmalarining keng qamrovli to‘plamini taklif etadi.

Avvalo, konvensiya muammoga qarshi kurashning to‘rtta mustahkam ustunini belgilab berdi, ularning birinchisi va eng muhimi korrupsiyaning oldini olishdir. Konvensiya ishtirokchi davlatlardan jamiyatda korrupsiyaga qarshi mustahkam immunitet hosil qilishni talab etadi. Bu esa davlat xizmatiga munosib kadrlarni tanlash, ularning odob-xulq qoidalariga rioya qilishi, davlat xaridlari va byudjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishini nazorat qilish, jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning oldini olish, davlat organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligi kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, konvensiya “jazoning muqarrarlari” tamoyilini ham ilgari suradi. Unga ko‘ra, nafaqat oddiy poraxo‘rlilik yoki o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish, balki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish, xizmat mavqeidan g‘arazli maqsadlarda foydalanish, noqonuniy tarzda boylik orttirish va jinoyi daromadlarni legallashtirish kabi qilmishlar ham qat‘iy jinoyi ta‘qib ostiga olinishi shart.

Ayniqsa, konvensiyada ko‘rsatilgan “noqonuniy boylik orttirish” konsepsiyasi mansabdor shaxsning aktivlari uning rasmiy daromadidan keskin oshib ketishi holatini jinoyat deb baholashga chaqiruvchi inqilobiy g‘oya hisoblanadi.

Konvensiyaning yana bir strategik maqsadi korrupsionerlar uchun dunyo xaritasida “xavfsiz boshpana” qoldirmaslikdirl. Ilgari xalq mulkini o‘g‘irlab, xorijga qochib ketganlar jazodan qutulib qolishi mumkin edi, mazkur hujjat esa davlatlar o‘rtasida ekstraditsiya va o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish yo‘llarini ochdi.

Eng muhimi, konvensiya bilan tarixda ilk bor o‘g‘irlangan aktivlarni qaytarish mexanizmi joriy etildi. Bu shuni anglatadiki, korrupsiya yo‘li bilan topilgan va chet elga olib chiqib ketilgan boyliklar musodara qilinib, o‘z qonuniy egasiga — o‘sha mamlakat xalqiga va uning rivojlanishiga qaytarilishi kafolatlanadi.

BMT konvensiyasi korrupsiyani mahalliy muammodan transmilliy xavfsizlik masalasiga aylantirdi va ishtirokchi davlatlardan faqat jinoyatchilarni jazolashni emas, balki korrupsiyadan xoli bo‘lgan adolati tizim yaratishni talab qilmoqda. Binobarin, konvensiya ishtirokchisi sifatida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurash sohasida tub islohotlar kechmoqda.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvida byurokratiyani qisqartirish, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish orqali korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, davlat xizmatlarini soddalashtirish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda. Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘liga qo‘yildi.

Xususan, 120 turdagi hujjatni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi. Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11

milliondan oshdi. Ushbu choralarning barchasi yurtimizda maishiy korrupsiya sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

Ilgari korrupsiyaga qarshi kurash turli organlar o‘rtasida tarqoq holda amalga oshirilgan. Binobarin, 2020-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etilishi mamlakatimizning korrupsiyaga qarshi murosasiz ekanini ko‘rsatuvchi siyosiy iroda namunasini ko‘rsatdi.

Qolaversa, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Davlat xaridlari maxsus axborot portali tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining jamoatchilik uchun shaffofligi ta‘minlandi, davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha masofaviy monitoring qilish tartibi, davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti tasdiqlandi. Bularning barchasi davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishiga xizmat qilmoqda.

2024-yilda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishning huquqiy asoslari yaratildi. Qonun bilan davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha cheklolar, bu bilan bog‘liq munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir choralar belgilandi.

Korrupsiya darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning reyting natijalari ham O‘zbekistonda bu boradagi islohotlarning samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Muxtasar aytganda, faqatgina mavjud huquqiy mexanizmlarni to‘liq ishga solish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqaligina korrupsiyani jilovlashda ko‘zlangan natijalarga erisha olinmaydi. Zero, qonun ustuvorligi ta‘minlangan jamiyatdagina taraqqiyot va barqarorlik kafolatlanadi.

Munosabat “YASHIL” VA YANGICHA MODELDAgi ENERGETIKA SARI DADIL QADAM

5-dekabr O‘zbekiston energetika sohasi, umuman, mamlakatimiz tarixida zarhal harflar bilan bitiladigan kun bo‘ldi. Chunki joriy yilning aynan shu sanasida “Barqaror energetika – yangi O‘zbekistonning kelajak sari ishonchli qadami” mavzusidagi milliy ahamiyatga ega xalqaro anjuman o‘tkazildi. Mazkur tadbir chog‘ida yurtimizda yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlari ishga tushirilib, navbatdagilarining qurilishiga start berildi.



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiya rahbari

Nufuzli anjumanning milliyligi yangilanishning avj pallasida turgan O‘zbekiston energetikasi ravnaqi uchun o‘ta muhim voqea yuz bergani bilan bog‘liq. Yana bir ahamiyatli jihati, Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida foydalanishga topshirilayotgan hamda bu quvvatlarning zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalarga asoslanganidir. “Uzoqni ko‘ra bilish” deb shuni aytadilar. Bu hikmat mohiyati yilga nom berishga ham, kelajak avlodga sog‘lom tabiatni meros qoldirishga ham birdек taalluqli.

Xalqaro maqomga kelsak, bu ko‘lam O‘zbekiston hamkorlarining geografiyasi naqadar keng ekanini ko‘rsatishi barobarida mamlakatimizga qat‘iy ishonch bilan qaraydigan davlatlar va xalqaro tuzilmalar safining nechog‘liq qamrovli ekanini ham namoyon etib turibdi.

E‘tibor bersak, mavzu ikki voqeani qamrab oladi.

Birinchisi — yangi obyektlar. Foydalanishga topshirilgan energiya ishlab chiqarish va saqlash quvvatlari, turdosh va yo‘ldosh infratuzilma inshootlari jami 42 ta. Hududlar miqyosida aytganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida quyosh, shamol, issiqlik va gidro elektr stansiyalari ishga tushirildi. Bu ular to‘liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan keyin yiliga 15 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi, deganidir. Shu zayilda kelgusi yildan

O‘zbekistonda “yashil” energiyaning ulushi 23 milliard kilovatt-soatga yetadi.

Bu o‘rinda uzoqni ko‘zlab ish tutishning bir jihatiga to‘xtalib o‘tish kerak. E‘tibor tortadigan dastlabki omil shuki, tiklanadigan muqobil manbadan foydalanish yo‘liga qo‘yilishi tufayli 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejalandi. Pirovardida atmosfera chiqayotgan zararli moddalar 11 million tonnaga kamayadi.

Uzoqni ko‘ra bilishning ikkinchi jihati, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini saqlash tizimiga doir. 5-dekabr kuni 1245 megavattli 10 ta shunday inshoot foydalanishga topshirildi. Havo harorati o‘ta yuqori yoki past bo‘lganda sovitish va isitish texnikasi ko‘p energiya sarflaydi. Bu omil ba‘zan elektr tarmoqlaridagi uzilishlarga sabab bo‘ladi. Endi yangi inshootlar energiya eng ko‘p iste‘mol qilinadigan tig‘iz vaqtlarda qo‘shimcha ravishda 1,5 milliard kilovatt-soat elektr quvvatini yetkazib beradi va shu tariqa uzilishlarga chek qo‘yiladi.

Masalaning yechimiga kompleks tarzda yondashilganiga yana bir dalil bor. Yangi ishga tushirilgan 11 ta yirik podstantsiya, 420 kilometr masofani qamraydigan yuqori kuchlanishli tarmoqlar tizimining barqaror ishlagishiga xizmat qiladi.

E‘tibor bering, elektr energiyasi ishlab chiqarish ham, uni zaxirada saqlash va yetkazib berish tizimlarini yaxshilash ham barobar hisob-kitob qilingan. Ishlab chiqarib, saqlay

olmasak yoki saqlashga saqlab, keyin uzatish payti kelganda uzilishlar haqida bosh qotirsak, qilingan hamma ish chala bo‘ladi.

Haqiqatan, uzoqni ko‘ra bilish deb shuni aytadilar.

Bu ibora tez-tez takrorlanayotgani bejiz emas. Manzaraga kengroq nazar tashlaganda, ikki maqsad yo‘lidagi yaxlit harakat yaqqol ko‘rinadi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, ularning birinchisi, barcha tarmoq va hududlar uchun ishonchli va uzluksiz energiya ta‘minotini

yo‘lga qo‘yish bo‘lsa, ikkinchisi, bu ishni zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalar hisobidan amalga oshirishdir.

Buni quyidagi ko‘rsatkichlar ham ro‘y-rost tasdiqlaydi: 2017-yildan hozirgacha bo‘lgan davrda yillik energiya generatsiyasi 60 milliarddan 85 milliard kilovatt-soatga yetkazildi. 5000 megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidro elektr stansiyalari ishga tushirildi. “Yashil” energiyaning ulushi 30 foizga ko‘tarildi. Bu elektr energiyasi ishlab



Strategiyaga binoan, bunga shay bo‘lish uchun 2030-yilgacha qo‘shimcha 17 ming megavattndan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushiriladi. Bu bilan “yashil” energiyaning hisssasi 54 foizga yetkaziladi. Tasavvur qiling, bu – zararli moddalar teng yarmiga kamayadi degani.

chiqarish barobarida havo 30 foiz musaffo bo‘ldi deganidir.

Bu hali hammasi emas. Shu nuqtagacha katta quvvatlar haqida so‘z yuritildi. Endi ularni iste‘molchiga taqdim etish masalasi maydonga chiqadi. Buning uchun, birinchi navbatda, transformatorlar kerak. Turli qishlog‘u mahallalarda bu ancha vaqtdan buyon goh kichik, goh kengroq miqyosda muammo tug‘dirib kelayotgani sari emas. Yangi ishga tushirilgan “Angren Energo” va “UzHydroPower” korxonalari bunga barham beradi. Birinchisida yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqarilsa, ikkinchisida 155 ta gidro-agregat tayyorlanadi.

Moliyaviy qiymati 11 milliard AQSH dollariga teng bu inshootlar nafaqat milliy energetika, balki butun iqtisodiyotimizga ulkan yangi quvvat baxsh etadi. Ya‘ni yuqorida keltirilgan ahamiyatli bilan qo‘shib hisoblanganda bu obyektlar milliy energetika tarmog‘i salohiyatini oshirishga qaratilgan katta strategiyaning bir qismi, xolos.

Anjumanda davlatimiz rahbari kelgusi 5 yilda minglab sanoat va infratuzilma obyektlarini ishga tushirib, yuqori daromadli ish o‘rinlarini ochish mo‘ljallanayotganini e‘lon qildi. Sanoat ishlab chiqarishi yuksalib borayotgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni muttasil oshayotgani, shuningdek, yangi ko‘p qavatli uy-joylar (800 mingdan ortiq xonadon), 500 megavatt quvvatiga ega data-markaz qurish kabi rejalar elektr energiyasiga ehtiyojni oshiradi, albatta.

Avvalo, strategiyaga binoan, bunga shay bo‘lish uchun 2030-yilgacha qo‘shimcha 17 ming megavattndan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushiriladi. Bu bilan “yashil” energiyaning hisssasi 54 foizga yetkaziladi. Tasavvur qiling, bu — zararli moddalar teng yarmiga kamayadi degani.

Yangi quvvatlarni yagona energiya tizimiga ulash — ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga yetkazish uchun 6000 kilometr masofaga yuqori kuchlanishli tarmoqlar tortiladi. Iste‘molchilar bilan bevosita bog‘lanish, “yetkazib beruvchi — iste‘molchi” munosabatlarni zamonaviy andozalar darajasiga ko‘tarish uchun bu sohaga davlat-xususiy sheriklik asosida xorijiy sarmayodarlarni jalb etish kengaytiriladi. Bu orqali tarmoqlarni modernizatsiya qilish, yo‘qotishlarni kamaytirish ishleri jadallashtiriladi. Shunday qilinsa, hisob-

kitoblariga ko‘ra, yiliga o‘rtacha 20 million dollarga teng mablag‘ tejalar ekan.

Aholining tiklanadigan muqobil energiya manbalaridan xususiylik asosida foydalanishi, tadbirkorlarning kichik va mikro GESlar qurishini qo‘llab-quvvatlash izchil davom ettiriladi. Bu orqali ham davlat yuki kamaytiriladi, ham ekologik vaziyat yaxshilanadi. Xonadon va korxonalar eskichasiga faqat davlat energiyasiga qarab qolmaydi, balki o‘zi ishlab chiqarib, o‘zi foydalanadi, ortganini sotadi. Bu jarayonda ko‘mir ham, uglevodorod yoqilg‘isi ham ishlatilmagani bois, atmosfera zaharlanmaydi.

O‘ziga xos paradoks: ishlab chiqarish bor, lekin ekologik zarar yo‘q. Bunda hech qanday ziddiyatga o‘rin qolmagan, biz ilm-fan va texnologiyalarning eng ilg‘or yutuqlaridan foydalanaypmiz, xolos.

Yaqinda Braziliyada o‘tgan iqlim konferensiyasida O‘zbekiston 2035-yilgacha zararli gazlar emissiyasini 50 foizga qisqartirish maqsadini baralla ayta olgani sababi ham shunda!

Buning iqtisodiy foydasi ham katta. Shu tariqa karbon krediti tizimi bizga xalqaro miqyosda uglerod birliklari savdosini amalga oshirish imkonini beradi. Bu — bir jihati. Ikkinchidan, joriy yilda 17 ta yirik sanoat korxonamiz “yashil” energiya bo‘yicha xalqaro sertifikatlar tizimiga kirdi. Ularda ishlab chiqarishning 30 foizi “toza” energiyaga asoslangani bois, xalqaro bozorlarda mahsulotlarining xaridortligi sezilarli darajada oshmoqda. Kelgusi ikki yilda bunday korxonalar soni 100 taga yetkaziladi.

Nihoyat energetika tizimini rivojlantirish hozir xalqaro munosabatlar kun tartibida birinchi o‘rinda turgan masalaga — mintaqaviy hamkorlikka kuchli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qo‘shni davlatlar bilan yagona energetika bozorini yaratish bo‘yicha sheriklik aloqalari mustahkamlanadi. Bu ham aynan Prezidentimizning uzoqni ko‘ra bilish siyosatining yana bir yaqqol ifodasidir.

Davlatimiz rahbari anjumandagi nutqida bu boradagi dadil qadamlarga to‘xtaldi. O‘zbekiston kelgusi yildan Qirg‘iziston va Qozog‘iston bilan birga “Qambarota GES-1” loyihasini moliyalashtirishga kirishmoqchi bo‘lib turibdi. Ozarbayjon va Qozog‘iston hamkorligida Yevropaga elektr energiyasini eksport qilish bo‘yicha “yashil yo‘lak” loyihasi doirasida sa‘y-harakatlar boshlab yuborilgan. Istiqbolida bu yo‘nalishdagi ishlar ko‘lami kengayaveradi. Chunki Markaziy Osiyoning har bir davlati o‘ziga yarasha energetika salohiyatiga ega.

Shunday qilib, 5-dekabрни nafaqat O‘zbekiston energetikasi, balki davlatimiz tarixiga kiritish uchun barcha asoslar yetarli ekaniga to‘liq ishonch hosil qildik. Shu kuni 42 ta obyekt ishga tushirilgan bo‘lsa, yana 21 tasning qurilishi boshlandi.

Zotan, Prezidentimiz alohida qayd etganidek, “Biz bugun ishga tushirayotgan barcha loyihalar iqtisodiy o‘sishni ta‘minlab, kelajak avlodlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunday jadali harakatlarni va tashabbuslarimiz bilan biz yangicha modeldagi zamonaviy energetika tizimini albatta to‘liq barpo etamiz”.

KONSTITUTSIYA – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!

ADOLATLI, OCHIQ, INSONPARVAR JAMIYATNI BARPO ETISHGA QARATILGAN YANGILANISHLARNING HUQUQIY ASOSI

Shu kunlarda butun xalqimiz ulug‘ ayyom — mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligini yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida erishilayotgan ulkan yutuqlar, ko‘tarinki ruh va kelajakka qat’iy ishonch bilan keng nishonlamoqda. O‘ttiz uch yil — ko‘hna tarix uchun bir lahza. Ana shu qisqa muddatda O‘zbekiston mustaqil va suveren davlat sifatida to‘la shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallagani, tom ma’noda ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan xalqimizning ulkan yutug‘idir.

Bu borada bundan ikki yil avval xalqimizning fikr-mulohazalari va taklif hamda tashabbuslari asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning jamiyatimiz rivojidagi o‘rni beqiyos. Bosh qonunimizda na faqat mamlakatimizning uch ming yillik tarixi va madaniyati, balki zamonaviy dunyo konstitutsionalizmi asoslari ham to‘liq aks etdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq va xalqaro me’yorlar asosida inson huquq hamda erkinliklari mutlaq ustuvorlikka ega bo‘ldi. Fuqarolarning barcha zarur huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda ularni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Muhimi, Konstitutsiya O‘zbekiston demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmagani yuridik kafolatlab, “inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida faqat oldinga qarab borishni qonunan mustahkamladi. Buyuk kelajak maqsadlariga mos huquqiy poydevor yaratildi. Bu esa jamiyatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barcha sohalarini rivojlantirish, xalqimiz farovon turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratishga turkib bo‘lmoqda.

Buni turli sohalarida erishilayotgan ulkan yutuqlar yaqqol ifoda etadi. Jumladan,

so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishildi. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta’lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay, iqtisodiyotimiz 6 foizdan yuqori sur’atda barqaror o‘sayotgani xalqimiz o‘zi tanlagan yo‘ldan dadil borayotganini ko‘rsatmoqda.

Albatta, bu yutuqlarning barchasi uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan oqilona siyosat va mashaqqatli mehnat mahsulidir. Bularga erishishda esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, Bosh qonunimizning qabul qilinishi tarixi, bu jarayonda kechgan qizg‘in bahs-munozaralar va umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning bugungi hayotimizdagi samarasiga doir ma’lumotlar barchamiz uchun birdek muhim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilinishi jarayonida faol ishtirok etgan konstitutsiyaviy komissiya a’zolaridan ba’zilarining shu xususdagi fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

KONSTITUTSIYA BUTUN MAMLAKAT BO‘YLAB KENG MUHOKAMADAN O‘TDI

Bobur BEKMURODOV, “Yuksalish” harakati raisi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingan kun — 2023-yil 1-may mamlakat siyosiy tarixida tubdan o‘zgarishlar sahifasini ochdi. U faqat qonunlar to‘plami emas, balki davlat, jamiyat va alohida fuqarolar o‘rtasidagi yangi ijtimoiy shartnomadir. Konstitutsiya inson qadri, adolat, ochiqlik, qonun ustuvorligi kabi o‘zgarmas qadriyatlarni mamlakat taraqqiyotining asosiga aylantirdi.

Oltmish besh foizdan ortiq qismi yangilangan Konstitutsiya butun mamlakat bo‘ylab keng muhokamadan o‘tdi. Referendumda aholining 90 foizdan ziyodi ishtirok etgani — fuqarolarning mas’uliyati va mamlakat kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi oshganini ko‘rsatadi. Bu jarayon fuqarolik jamiyati rivojlantirishda yangi bosqichni boshladi.

Bizningcha, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng muhim jihati — O‘zbekistonning huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi mavqei konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yilishidir. Bu tamoyillar



endi qayta ko‘rib chiqilmaydigan milliy qadriyat sifatida mustahkamlandi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi esa har bir fuqaroga o‘z huquqini bevosita Bosh qonun orqali himoya qilish imkonini beradi. Ijtimoiy davlat modeliga o‘tish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga kafolatlangan qo‘llab-quvvatlov, bolalar, nogironligi bo‘lgan

shaxslar, o‘qituvchilar huquqiy maqomining mustahkamlanishi — inson qadriini markazga qo‘yuvchi siyosatning mantiqiy davomidir. Bu yo‘nalishdagi har bir norma mamlakatdagi kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ochiqlik va hisobdorlikka qaratilgan o‘zgarishlar ham o‘ta muhim. Davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligi, OAV erkinligini ta’minlash, axborot maydonidagi to‘siqlarning olib tashlanishi — jamiyat nazoratini kuchaytirib, demokratiyani amaliy mazmun bilan boyitadi.

Konstitutsiyadan iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladigan qator normalar ham alohida joy oldi: yer bozorini rivojlantirish, halol raqobatni ta’minlash, xususiy mulk daxlsizligining kafolatlanishi, tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish. Bunday huquqiy asos davlat boshqaruvining samaradorligi va iqtisodiy islohotlar sur’atiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan yuritmizning barcha hududida o‘tkazilgan keng muhokamalarda 220 mingdan ortiq taklif va mulohaza jamlandi. Bu fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki tobora oshganini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Yuksalish” harakati ham, parlament ham bu jarayonda fuqarolar bilan bevosita muloqotni kuchaytirish, ularning fikrini eshitish va manzilli takliflarni shakllantirishda faol qatnashdi. Hududlardagi muhokamalardan tortib, qonunchilik tashabbuslarigacha bo‘lgan jarayonlarda yuzlab fuqarolarning takliflari tinglandi. Ularning aksariyati yangi tahrirda Konstitutsiyada o‘z ifodasini topdi.

Bugun jurnalistlar, fuqarolik faollari, oddiy yurtdoshlarimiz Konstitutsiya moddalariga tayanib, o‘z huquqlarini himoya qilayotgani — qonun ustuvorligiga ishonch mustahkamlanayotganidan dalolat. Bosh qonun amalda ishlayapti, fuqarolar moddalarning ahamiyati, hayotimizga ta’sirini kundan kunga yaxshiroq anglayapti. Bu esa jamiyat va davlat o‘rtasidagi mulotot yangi — sifat bosqichiga ko‘tarilayotganidan darak beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekistonning huquqiy arxitekturasini, kelajakni belgilaydigan strategik dasturialamdir. U mamlakatimizda adolati, ochiq, insonparvar jamiyatni barpo etishga qaratilgan islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Bizning vazifamiz — konstitutsiyaviy normalarning hayotda to‘laqonli amal qilishi, har bir fuqaroning huquq va manfaatlari himoyalangan ochiq jamiyatning shakllanishiga xizmat qilishdir. “Yuksalish” harakati ham, parlament ham bu borada birgalikda, mas’uliyat bilan, xalq manfaati yo‘lida ishlashda davom etadi.

HAYAJON VA MAS’ULIYAT TO‘LA JARAYON

Gulnora MA’RUFOVA, Oliy Majlis Senati a’zosi



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ishlab chiqish jarayonida kechgan qizg‘in bahs-munozaralar kechagidek esimda. Konstitutsiyaviy komissiya a’zosi sifatida ushbu tadbirlarda faol ishtirok etganimdan faxrlanaman. Zero, Konstitutsiya davlatimiz barqarorligi va kelajagi, inson manfaatlarining huquqiy asosidir.

Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilish uchun bir yarim yil mobaynida puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi omamaviy axborot vositalarida e’lon qilinib, xalqimizning fikri o‘rganildi. Jamoatchilikdan kelib tushgan takliflar sinchiklab o‘rganilib, hujjatda o‘z aksini topdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda sud-huquq sohasini takomillashtirish bilan bog‘liq muhim tamoyillar ham o‘z ifodasini topgani alohida ahamiyatga ega. Chunki sud hokimiyatining mustaqilligi — huquqiy davlatning o‘zagi, inson huquq va erkinliklari muhofazasining eng muhim mexanizmi.

Konstitutsiyada mustahkamlangan kafolatlar sudyaning tashqi ta’sirdan xoli tarzda, faqat qonun talablariga rioya etib qaror qabul qilishini ta’minlaydi. Ushbu kafolatlar institutsional (tashkiliy), protsessual (funktional) va shaxsiy (individual) mustaqillik garovidir. Shu nuqtayi nazardan, sudlar faoliyatini tashkil etish hamda sudyalarning mustaqilligini ta’minlashda sudyalarning jamoatining faol ishtiroki sud hokimiyati mustaqilligini amalda ta’minlashning asosiy kafolatlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Sudyalarning jamoatining organlari ichida Sudyalarning kengashi markaziy o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahrirda Sudyalarning oliy kengashi tarkibini shakllantirishga oid normalar belgilanmagan edi. Endi mazkur norma Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, Sudyalarning oliy kengashi raisi va o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan besh yil muddatga saylanishi belgilandi.

Shuningdek, kengash raisi va o‘rinbosarining vakolat muddati ham aniqlashtirilib, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Sudyalarning oliy kengashi raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

Sudyalarning tanlash va baholashning yangi talablarini joriy etishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Prezidentimizning 2025-yil 24-noyabrda “Sudyalarning jamoatining organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu borada

muhim huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur hujjatni sud tizimining keyingi rivoji uchun yo‘nalishlarni belgilab bergan va avvalgi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lgan muhim tarixiy qadam sifatida e’tirof etish mumkin.

Farmon sud organlarida tanlov va baholash tartibini belgilab berishi bilan birga sud hokimiyati poydevorini zamonaviy huquqiy mezonlar asosida mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, farmon sud hokimiyatining muhim bo‘g‘inlarini takomillashtirishga qaratilgan bir nechta dolzarb o‘zgarishni belgiladi. Eng avvalo, sudyalik faoliyati barqarorligini ta’minlash va mustaqillik kafolatlarini kuchaytirish maqsadida sudyalarni har o‘n yillik muddatga qayta tayinlash amaliyoti tugatildi. Endi nomzodlar avval besh yilga tayinlanadi. So‘ng ularga muddatsiz vakolat beriladi. Bu yangilik sudyalarni muddatga bog‘liq cheklavlardan xoli qilib, ularning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, sud tizimi boshqaruvida ochiqlik va to‘g‘ri raqobatni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tumanlararo, tuman va shahar sudlari raislari hamda o‘rinbosarlari sudyalardan aniq mezonlarga asoslangan ochiq tanlov orqali saylanadi. Bu tartib rahbarlikka tayinlashda subyektivlikka barham berish, sud tizimida, eng avvalo, malaka va halollikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, farmon sudyalarning kasbiy faoliyatini baholashda mutlaqo yangi yondashuvni joriy qiladi. “Halollik”, “kasbiy layoqat” va “sudyalik odobi qoidalariga rioya etish” kabi mezonlarning qonun darajasida belgilab qo‘yilishi sudya obro’sini yanada oshiradi. Bu esa sud tizimida professional madaniyatni mustahkamlab, sudyalarning jamiyat oldidagi javobgarligini yuqori bosqichga ko‘taradi.

Qisqasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar faoliyatining takomillashtirish jamiyatidagi inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadriyatlarini ulug‘lash borasidagi ezgu ishlar bardavom bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

HUJJATDA MENING TAKLIFLARIM HAM AKS ETGAN



Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Eng baxtli va omadli deputatlardan biriman. Chunki Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida 2022-2023-yillarda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni ishlab chiqish jarayonida bevosita ishtirok etdim.

Har gal Konstitutsiyamizga murojaat etganimda

yoki tadbirlarda Konstitutsiyamiz to‘g‘risida gap ketganda, o‘sha tarixiy jarayonlar ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ladi.

2022-yil 20-mayda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi kengashi va Senati kengashining qo‘shma qarori bilan Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a’zolari va mamlakatimizning yetuk olimlaridan iborat tarkibda Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi.

Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlaganda ko‘plab savollar o‘rtaga tashlanib, qizg‘in muhokamalar bo‘lgandi. Xususan, “Konstitutsiyaning yangidan qabul qilamizmi yoki yangi tahrirda qabul qilamizmi?”, “Konstitutsiyadagi moddalar sonini o‘zgartiramizmi yoki o‘zini saqlab qolamizmi?”. Bu savollar zamirida Konstitutsiya qabul qilingan sanani o‘zgartirish masalasi ham yotardi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritiladigan konstitutsiyaviy normalar toifalarini ham belgilab olish muhim edi. Konstitutsiyaviy komissiya bu masalalar xususida ko‘plab muhokamalar o‘tkazdi.

Muhokamalarda olimlar, yoshlar, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati instituti vakillari, xorijdagi vatandoshlarimiz, umuman, Vatanimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan ishtirok etib, o‘z taklif va fikr-mulohazalarini bildirdi.

Qolaversa, xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlarimiz bilan videokonferensaloqa orqali onlayn muhokama tashkil etildi hamda ularning konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan takliflari olindi.

Muhokamalar yakunida olingan takliflar asosida Konstitutsiyamizga kiritilayotgan normalar 4 toifaga bo‘lindi.

Birinchisi, huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar. Ikkinchisi, sohaviy qonunlarimizdagi ayrim normalarni Konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlash.

Uchinchisi, Konstitutsiyamizga konseptual yangi normalar kiritish.

To‘rtinchisi, Konstitutsiyamiz matniga lingvistik ekspertiza xulosasi asosida tahririy tuzatishlar kiritish. Kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning siyosiy-huquqiy ahamiyati va ko‘lamidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning yangi tahrirda bayon etishi uchun barcha asoslar yetarli bo‘ldi. Shuningdek, Konstitutsiya qabul qilingan kun ham saqlab qolindi. O‘z navbatida, loyihaning tarkibiy tuzilishi ham qayta ko‘rib chiqildi va Konstitutsiyamizga qo‘shilayotgan yangi moddalarga mustaqil raqamlar berildi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tashabbusi asosida parlament quyi palatasiga kiritgan edik.

Ushbu konstitutsiyaviy qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2022-yil 24-iyundagi qaroriga muvofiq, 2022-yil 25-iyundan 5-iyulgacha qadar umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Jamoatchilikdan ko‘p sonli takliflar kelib tushayotganini inobatga olib, keyinchalik Qonunchilik palatasining tegishli qarorlari bilan umumxalq muhokamasini muddati 2 marta — 2022-yil 15-iyulgacha va undan keyin 1-avgustga qadar uzaytirildi.

2023-yil 9-10-mart kunlari esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida mazkur konstitutsiyaviy qonun loyihasi juda qizg‘in muhokamalardan so‘ng deputatlar tomonidan ma’qullangan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining ushbu yalpi majlisi bo‘lib o‘tgan kunlar ham hayotimdagi tarixiy sanalardan biriga aylandi. Chunki aynan shu muhokamalarda avvalgi Konstitutsiyamizning 105-moddasidagi “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisini (oqsoqolni) saylaydi”, degan norma yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 127-moddasida o‘z aksini topib, o‘sha kungi yalpi majlisda bergan taklifim asosida “oqsoqol” so‘zi ushbu normadan chiqarib tashlandi. Men ushbu taklifimni rais — bu lavozim ekani, unda nafaqat erkaklar, ayollar va yoshlar ham ishlashi mumkinligi, oqsoqol esa mas’uliyat, maqom ekanini isbotlab bergan edim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdan ushbu so‘zning chiqarib tashlanishi hisobiga amaldagi qonunchiligidan ham ushbu so‘z lavozimga nisbatan chiqarib tashlandi.



Davlatimiz rahbari konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bir necha bor maslahatlashuv uchrashuvlarini o‘tkazgan va ularda komissiyada tortishuvlarga sabab bo‘lgan normalarga aniqlik kiritib berilgandi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqimizning bevosita ishtirokida yozilgan bosh qonun sifatida yurtimizda yuqori sur’atda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarning muhim huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.

2025-yil 8-dekabr, 254-son

O'ZBEKISTON 2030

Muxtabar HUSANOVA, Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi, yuridik fanlar nomzodi

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida o'zini qanday davlat deb e'lon qilgani, mamlakat taraqqiyotining manbai bo'lgan insonlar, fuqarolik jamiyati institutlari, tadbirkorlik subyektlariga qanday huquqiy kafolatlar belgilangani, ularning milliy davlatchilik tajribasi hamda xalqaro umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga mos ekanini, "inson — jamiyat — davlat" omillarining huquqiy muvozanatini ta'minlashda kuchli parlament, mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolati sud tizimining oqilona tartibga solingani kabi masalalar Konstitutsiya orqali davlat haqida mushohada yuritishga asos bo'ladi.

Siyosiy-huquqiy jihatdan qaraganda, har qanday islohot konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayvansagina, ko'zlangan strategik maqsad va natijalarga erishiladi. Zero, yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamiyat va davlat oldida turgan, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasini amalga oshirishning huquqiy poydevorini barpo etdi. E'tiborlisi, shu jamiyatda yashovchi har bir insonning orzu-maqsadlari, manfaatlarini ifoda etishning ham milliy qonunchilik, ham xalqaro umume'tirof etilgan normalarga mos ravishda amalga oshirish imkonini vujudga keldi. Davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Undagi normalarni birma-bir ko'zdan kechirar ekanimiz, xalqparvar davlat xususiyatiga xos barcha jihatlari, xususan, davlat boshqaruvini demokratlashtirish, davlatning ijtimoiy roli va majburiyatlarini kengaytirish, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish asoslari avvalgi tahrirga qaraganda ancha takomillashganiga guvoh bo'lamiz.

Ayniqsa, huquqiy siyosatimizda demokratik qadriyatlarga, insonparvarlik an'analarga mos mexanizmlar yaqqol aks etyapti. Inson

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi islohotlar natijasi sifatida xalqimizning jamiyat va davlat ishlarida vatanparvarlik ruhida emin-erkin ishtirok eta olish imkonini yanada kengaytirdi.

qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yanada mustahkamlash, mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va unga binoan qabul qilinayotgan qonun hujjatlari huquqiy asos bo'lmoqda.

Huquqshunos sifatida meni mamnun etayotgan jihat shuki, Konstitutsiyadabelgilangan fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishga oid konstitutsiyaviy huquqi to'laqonli ta'minlanishiga erishilayotir.

Birinchidan, bugun natijasini ko'rayotganimiz — islohotlar poydevorini barpo etgan, davlatning xalq bilan mulqotiga yo'l ochib bergan eng muhim qadam Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni loyihasi muhokamasi bo'lgan edi. O'sha paytda ayrim joylarda "Prezident farmoni loyihasi muhokama qilnarkan, takliflar berilarkan", deyilsa, "taklif bersam, o'tarmikan", "mabodo taklimim o'tsa, kimlamingdir ko'ziga yomon ko'rinish qolmasmikanman", degan hadiklar ham bo'lgani haqida eshitganmiz.

Harakatlar strategiyasining samarali amalga oshirilishida xalqimizning muhokamada, ijro va nazoratda faol ishtiroki muhim omil bo'ldi. Keyinchalik har yilgi davlat dasturlari loyihalari, Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni loyihasi aynan muhokamalar, takliflar xalq irodasini ifoda etish borasida to'g'ri qo'yilgan qadam sifatida o'zini to'liq oqladi.

Davlat dasturlarini kabinetlarda nazariy tushunchalar va tasmollar asosida emas, real hayotga mos, xalq irodasini haqiqatda ifoda etishga qaratilgan takliflardan kelib chiqib ishlab chiqish, shunga ko'ra vazifalarni belgilash, yangi O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi nufuzini yanada oshirish va mustahkamlash, belgilangan har bir topshiriqning mamlakat taraqqiyotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy samaradorligiga ta'sirini atroflicha o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi islohotlar natijasi sifatida xalqimizning jamiyat va davlat ishlarida vatanparvarlik ruhida emin-erkin ishtirok eta olish imkonini yanada kengaytirdi. Xalqqa birdamlik hissini berdi, davlatga va islohotlarga ishonchini oshirdi. Shu bois, konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan aholidan 220 mingdan ziyod taklif kelib tushdi. Ularning har biri komissiya tomonidan e'tibor bilan atroflicha o'rganilib, tahlil qilindi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi normalarga uyg'unlashtirildi hamda loyiha yana bir bor xalq e'tiboriga taqdim etilib, 2023-yil 30-aprelda



o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo'li orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh qonunimizda inson huquqlariga oid normalar uch baravardan ortiqqa oshirilgani so'zimiz tasdig'idir. Eng muhimi, davlatning inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdek oliy maqsadga sodiqligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Konstitutsiyaviy islohotlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bilan kifoyalannay, bosh qonunimizdagi norma va prinsiplarni hayotga tatbiq etish, uning amaliyligi, xalqchilligini ta'minlash, mamlakatdagi barcha insonlarning "Bu — mening Konstitutsiyam", deyidigan darajada maqomini oshirish yo'lida bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Mamlakatimizda konstitutsiyaviy qonuniyligni yanada mustahkamlash yo'lida izchillikka erishilmog'da.

Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2023-yil 7-noyabrda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi farmonlari amalidagi qonunosti hujjatlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish talabidan kelib chiqqan holda qabul qilindi. Bu inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda o'tirilgan tajriba hamda jamoatchilik muhokamasi natijalariga ko'ra qabul qilingan

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi muhim ahamiyatga ega. Unda xalqimizning erkin va farovon yashash, qudratli yangi O'zbekistoni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash borasidagi vazifalar o'z ifodasini topdi.

Xususan, saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etdi va bu O'zbekiston tarixida eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Deputatlar 2 nafari — 30 yoshgacha, 38,6 foizi — 30 yoshdan 45 yoshgacha, 46,6 foizi — 45 yoshdan 60 yoshgacha, 13,3 foizi 60 yoshdan kattalardir. Mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari saylangan deputatlarning 12,7 foizini tashkil qiladi. Jumladan, ulardan 5 nafari rus, 3 nafardan qozoq va tojik, 2 nafari koreys, 1 nafardan turkman va qirg'iz millatiga mansub.




Ikkinchidan, xalq irodasini ifoda etishning e'tirof etiladigan muhim jihati parlament tarkibidir. Saylov natijalariga ko'ra, bu jihat aholining turli millat va elat, turli yosh va qatlam, sohalar vakillari, partiyalar qo'oyalari tarafdorlarining parlament va mahalliy kengashlar a'zolari tarkibida ovozi jaranglayotganida ko'rinatedi.

Deputatlarning 30 foizi — iqtisodchi, 22 foizi — huquqshunos, 18,7 foizi — pedagog, 12 foizi — muhandis, 9,3 foizi — tibbiyot sohasi vakillari, 8 foizi esa madaniyat sohasi vakillari, tadbirkor va fermerlardan iborat. Ilk bor nogironligi bor 3 nafar shaxs deputat etib saylangani ham alohida ahamiyatga ega.

Tadbir

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan "Fuqarolik jamiyati haftaligi" davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlarini yo'lga qo'yish, nodaizlat notijorat tashkilotlari yanada rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiladigan maydonga aylandi.



BARQAROR VA FAROVON KELAJAKNI BIRGALIKDA YARATISH SAODATI

Tadbir doirasida mamlakatimizda ilk bor tayyorlangan fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tamoyillariga oid milliy ma'ruza taqdimoti o'tkazildi.

Taqdimot marosimida ta'kidlanganidek, bugun fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan 200 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat amal qilmoqda. Jumladan, 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, shu asosda keng ko'lamli ishlar qilyapti. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimizdagi islohotlarda faolligi yanada oshmoqda.

Prezidentimizning "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtrish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sohada muhim institutsional o'zgarishlarga asos bo'ldi. Unga muvofiq, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalari tashkil

etildi. Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat granti, subsidiya va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish shaffoqligini ta'minlash maqsadida barcha bosqichni qamrab oluvchi va inson omilini keskin kamaytiruvchi yagona elektron platforma ishga tushirildi.

2025-yilda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim tashabbus va loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1 trillion 200 milliard so'm jalb qilindi.

Ko'rsatilayotgan ana shunday yuksak e'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida bugun O'zbekistonda NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari hamda turli jamoat tuzilmalaridan

iborat 24 mingga tashkilot faoliyat yuritmoqda. Ularda 150 mingdan ortiq xodim mehnat qilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasidagi tajribasi va qadriyatlari xalqaro e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda. Xususan, O'zbekistonning mahalla tizimini isloh qilish bo'yicha noyob tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholannmog'da. BMT, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida "Mahalla — ijtimoiy boshqaruvning samarali modeli" sifatida e'tirof etilib, Markaziy Osiyo va boshqa rivojlanayotgan davlatlar tomonidan namuna sifatida o'rganilmog'da.

Milliy ma'ruzada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasidagi ana shunday muhim o'zgarishlar, NNTlar faoliyati takomillashuvi tendensiyalari, ular uchun yaratilgan huquqiy va institutsional sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki kabi muhim masalalar tahlil qilingan.

Haftalik doirasida bo'lib o'tgan tadbirlardan yana biri milliy, mintaqaviy va global darajada xalq diplomatiyasi orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalariga bag'ishlandi. Ta'kidlanganidek, yangi O'zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'da.

Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquqiy maqomi va institutsional salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmog'da. Bu esa davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida samarali muloqot hamda hamkorlikning ilg'or tizimini shakllantirib, islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

— Davlat xarajatlarining 70 foizdan ortig'i aynan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sarflanmog'da, — deydi Barqaror rivojlanish markazi direktori Elyorjon Saminov. — Bu esa aholi manfaatlarini davlat siyosatida keng inobatga olish va qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqchilgini ta'minlaydi. Natijada davlat va jamiyat o'rtasida shaffof, inklyuziv va o'zaro ishonchga asoslangan muloqot muhiti vujudga keldi. Bunday ijtimoiy-siyosiy dinamika demokratik boshqaruv tamoyillarini amalda mustahkamlash, fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi va mamlakatdagi keng ko'lamli islohotlar samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Xalq diplomatiyasi ham bu jarayonda strategik ahamiyatga ega va hal qiluvchi o'rin tutadi. Zero, bugungi globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati nafaqat ichki islohotlarni qo'llab-quvvatlash, balki davlatlar o'rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga ham zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi aloqalarni xalqaro darajada kengaytirish tashabbuslari xalq diplomatiyasini rivojlantiradi. Bu esa davlatlararo munosabatlarning rasmiy kanallar bilan birga ilmiy hamkorlik va jamoatchilik muloqoti orqali ham mustahkamlanib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Olmlar va ekspertlarning ta'kidlashicha, bugungi notinch dunyoda milliy, mintaqaviy

va global darajada xalq diplomatiyasi orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasi nafaqat dolzarb, balki dunyo hamjamiyati uchun ham strategik ahamiyatga ega. O'zbekistonda mazkur jarayonga alohida e'tibor qaratilmog'da. Milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va aql markazlari faoliyatini kengaytmog'da. Bu esa jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va mamlakatimizning mintaqaviy hamda global hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratmog'da.

BMTning "Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i" xalqaro tashkiloti tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan hisobotga ko'ra, O'zbekiston 167 davlat orasida 73,1 ball bilan 62-o'rinni egalladi. Ushbu natijamamlakatimizda milliy va xalqaro majburiyatlarini izchil amalga oshirish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, mamlakatimiz Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mintaqalarida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida faol sur'atlarda taraqqiyotga erishgan davlat sifatida e'tirof etildi. Bu natija xalq diplomatiyasi va fuqarolik jamiyati institutlarining global maqsadlarga qo'shgan hisssasi bilan uzviy bog'liq.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda har bir muloqot, har bir tashabbus va har bir hamkorlik tinchlik, taraqqiyot va farovonlik sari qo'yilgan muhim qadamdir. Bunday sa'y-harakatlar birgalikda barqaror va farovon kelajakni barpo etishga zamin yaratadi. Shu ma'noda, mazkur haftalik doiracidagi tadbirlar ham tinchlik va taraqqiyot yo'lida o'zaro hamjihatlik, hamkorlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi yangi tashabbuslarni ilgari surishda muhim qadam bo'ladi.

Bahor HAZRATQULOVA, jurnalist

BUYUK MAQSADIMIZ RAMZI

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti rektori

Mustaqillik — xalqimizning asriy orzusi, ajdodlar sabru matonatidan tug‘ilgan bebaho ne‘mat. Yangi O‘zbekiston esa ana shu mustaqillikning yangi mazmuni, yangicha tafakkur va ishonchli taraqqiyot timsoliga aylandi. Bugun mamlakatimizda inson qadri ulug‘lanib, adolat va ochiqlik tamoyillariga tayangan jamiyat barpo etilmoqda. Konstitutsiyamizning yangi tahriri esa bu o‘zgarishlarning huquqiy poydevorini mustahkamlab, davlat va jamiyat hayotida yangi sahifa ochdi.

Yorug‘ kunlarga intilib yashagan avlod uchun mustaqillik ham g‘urur, ham mas‘uliyat. Ezgu mehnat, har bir orzu, har qanday fidoyilik bu ne‘matning asosiga qo‘yilgan poydevordir.

Keyingi yillarda “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin oldi. Chunki u orqali o‘tmish xatolaridan saboq chiqargan, majburiy mehnatdan xoli bo‘lgan,

inson qadriini ulug‘laydigan, adolatli va ochiq jamiyat qurayotgan davlat namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston dunyoga ochiq, qo‘shnisi bilan tinchlikni ustun deb bilgan, iqtisodiy diplomatiya bilan yangi bozorlar ochayotgan, imkoniyatga to‘la zamin. Shuningdek, u o‘zgalar yordamini bir tomonlama emas, o‘zaro manfaat asosida qo‘llayotgan yuksak madaniyat va haqiqiy do‘stlik hissigga ega davlatga aylandi.

Yurtimizga, davlatimiz rahbariga bildirilayotgan yuksak hurmat va e‘tirof dunyoda o‘rnimiz mustahkamlanib borayotganining yorqin isbotidir. Bugun O‘zbekiston nafaqat siyosiy va iqtisodiy maydonda, balki inson qadriini yuksaltirishda ham o‘rnak bo‘layotgan davlat sifatida tanilmoqda. Davlat bilan davlat, xalq bilan xalq o‘rtasidagi yurakdan chiqqan samimiy munosabatlar aynan shundan dalolat beradi.

Xalqimizning ishonchi va muhabbati — eng oliy mukofot. Ana shu ishonch boshlangan har bir ishga kuch, har bir qadamga ruh, har bir sa‘y-harakatga baraka bag‘ishlamoqda.

So‘nggi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda

Huquqshunoslarning tayanchi

Xalqimizning irodasi va jipsligi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ko‘plab insonlar qatori mening hayotimda ham bir qancha o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Boisi, o‘zim huquqshunos-o‘qituvchiman. Bosh qonun esa huquqshunoslarning asosiy tirgagi hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmunan boy, ko‘lami jihatdan keng qamrovdor ekani bilan e‘tiborga molik.

Asadbek ZOIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktranti

ta‘minlaydi”, deya qayd etilgani alohida ehtiyojga ega shaxslar huquqlarini kafolatlashga jiddiy e‘tibor qaratilganidan dalolat beradi.

2023-yilda Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichiga qabul qilindim.

TA‘LIM OLISHIM, MEHNAT QILISHIM UCHUN QONUNIY ZAMIN BOR

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida yiliga 500 dan ortiq yuqori texnologik, murakkab neyroxirurgik amaliyot o‘tkaziladi. Bu, o‘z navbatida, bemorlarning shifo izlab xorijiy mamlakatlarga ketishi, begona yurtda turli qiyinchilikka uchrashining oldini olib, yilimizda shifo topishiga imkon bermoqda. Zero, Bosh qonunimizda har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan.

Mahkamjon MAHKAMOV,
Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining qon tomir neyroxirurgiyasi bo‘limi mudiri, II darajali “Salomatlik” ordeni sohibi

“Salomatlik” ordeniga munosib ko‘rildim. Albatta, buning zamirida ta‘lim olishim, mehnat qilishim uchun konstitutsiyaviy asos bor. Shifokor sifatida xalqimizga xizmat qilishim uchun yaratilgan imkoniyatdan behad xursandman.

Jadid bobolarimizning inson qadri, ilm-fan va ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlari o‘z davrida jamiyatning ma‘naviy saviyasini belgilab bergan edi. Hozir ham bu fikrlarning qiymati yuksak darajada. Jumladan, buyuk pedagog Abdulla Avloniy “Ta‘lim va tarbiya uzviy bog‘liq jarayonlardur, dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitir”, deydi.

Xurshid QURBONOV,
tarix fanlari nomzodi

va o‘rgatish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya‘ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarni o‘rganishdir”, deydi. O‘z navbatida, ta‘limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilishi, tarbiyada ma‘naviy-axloqiy qoidalar, odob me‘yorlari o‘zlashtirilishi, kasb-hunarga oid malaka hosil qilinishini asoslab beradi.

Abu Rayhon Beruniy ham Muhammad Xorazmiy g‘oyalarni to‘ldirib, o‘qitishda usul va vositalardan foydalanish muhimligini uqtirdi. Jumladan, “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. O‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib, uning turli tomonlarini his qilishi uchun ko‘rish va tomosha qilish lozimdir”, deydi.

Albatta, ta‘lim-tarbiya berishda o‘qituvchi-pedagoglarning o‘rni hamda mahorati ko‘p narsani hal qiladi. Shu bois, yangi tahrirdagi



Aqlimni taniganimdan hamshaharlarim — marg‘ilonlik ayollarning hammasi uyida albatta do‘ppimi, to‘nmi, qiyiqmi, kamzulmi tikishi (ishlaydiganlar ham istisnosiz) oddiy holat ekanini ko‘rib, shunga ko‘nikib ulg‘aydim. O‘n yoshga kirganimizda onalarimiz bizga tizzako‘rpacha berib, tikishni o‘rgatgan.

O‘zim tug‘ilib o‘sgan Galaxumdon mahallasidagi xonadonlarni bir boshdan ko‘z oldimdan o‘tkazyapman: ko‘chamizning u boshidan bu boshigacha... oilalar moddiy ahvoli hozirgidan ancha og‘ir bo‘lishiga qaramay, birorta uyda turmushi buzilib kelgan ayol yoki ajrashgan erkak borligini eslamayman...

Yuqoridagi ikkita gapning biri bog‘dan, biri tog‘dan kelgandek tuyulayotimi sizga? O‘qishda davom etsangiz, yana ajablanasiz, chunki quyidagi gaplar respublikamiz oliy ta‘lim dargohlaridan biri bilan bog‘liq. Lekin vaqtinigizni ayamay, maqolani o‘qib chiqsangiz, bu fikrlarning hammasi o‘zaro uzviylikni, bir-birini to‘ldirishini tushunasiz deb o‘ylayman.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida tashkil etilayotgan “Ma‘rifat ulashib” dasturining navbatdagi uchrashuvlarini Qashqadaryo viloyatidagi nodavlat oliy ta‘lim dargohlarida o‘tkazdik. Adabiy muloqotlar, munozaralar, suhbatlar jarayonida yana bir narsaga iqror bo‘ldim: garchi bu tadbirlardan asosiy maqsad institut va universitetlarda tahsil olayotgan yoshlarni adabiyot olami, taniqli qalamkashlar va ularning ijodi bilan yaqindan tanishtirish, kitobxonlikni keng targ‘ib etish, talabalar ma‘naviyatini boyitish esada, ijodkorlarga-da manfaatli bo‘lgan muhim jihati borligini angladim: yoshlarimiz ongi, dunyoqarashi, tanlagan sohasi va jamiyatga munosabati, izlanuvchanligi shunchalar tez yuksalib, keng miqyosli bo‘lib bormoqdaki, ularning hayoti, faoliyati bilan izchil tanishib bormagan ijodkor davrimizning jo‘shqin, yangiliklarga chanqoq, shijoatli nafasini his etishi qiyin.

Biz yorug‘ va keng xonalarda, talabalar yotoqxonalarida, oqshomgi gulxanlar atrofida o‘tkazgan qiziqarli uchrashuvlarda talabalarga yaratilgan sharoit va imkoniyatlarni

kuzatarkanmiz, Prezidentimizning oliy o‘quv dargohlari davlat yoki nodavlat ekanidan qat‘i nazar, ularda yoshlarning puxta bilim olishi, shaxs bo‘lib kamol topishi uchun birdek imkoniyatlar bo‘lishi zarurligi, shuningdek, mavqei ham teng ekan haqidagi fikrlari amalga oshayotganini his etdik.

“Aql yoshda emas, boshda” deganlaridek, tashkil etilganiga hali hech qancha bo‘lmagan ayrim nodavlat oliygo‘hlar faoliyatida ham o‘rganishga, ibrat sifatida ko‘rsatishga arziydigan, yoshlarni kelajak hayotda qo‘llab-quvvatlaydigan yangiliklardan ilhomlandik. Qarshi shahridagi texnologiya va menejment sohasiga ixtisoslashgan xususiy universitetlardan birida tashkil etilgan iroqi kashta tikish to‘garagi faoliyati va uning dastlabki samaralari ham fikrimizga dalildir.

Hozirgi davrda yoshlarning puxta, chuqur bilim olishi bilan birga ildizlari ming yilliklar tajribasidan suv ichadigan qadriyatlarimizga, dunyo sahanasida chin o‘zbekona qiyofamiz, mahoratu san‘atimizni namoyish etadigan hunarmandlik turlariga mehr-muhabbati, qiziqishini tarbiyalash, ularni egallashga rag‘batini oshirish dolzarb vazifalardan bo‘lib turibdi. Zero, vatan taraqqiyoti uchun ilmu fan, zamonaviy texnologiyalar rivoji qanchalar zarur va shart bo‘lsa, hayotimiz farovonligi, oilalardan boshlanib, shaharu qishloqlarimiz obodligi, madaniyat va ma‘naviyatimiz yuksalishi uchun zargarona mehnatu hunarmandlikning samaralari, ahmiyati bundan kam emas.

Talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, milliy qadriyatlarini asrab-avayab avlodlarga yetkazishi uchun ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida shu yilning boshida universitetda iroqi kashta to‘garagi ochilgan ekan.

Kechki payt borganimizda, to‘garak uchun ajratilgan xonalar oldida qo‘yilgan chiroyli so‘r‘ida, ichkarida chevar qizlar xuddi etaklardagidek qator o‘tirib kashta tikardi. O‘zimming o‘smirlikim, o‘sha paytdagi dugonalarimga atab yozgan satrlarim yodga tushib ketdi, o‘qib berdim: Yelka osha jamalak soch Ipagiga ilashib, Chimirilgan kamalak qosh, Kashta biram yarashib, Qatim tortar qizgina... Shod etgani ko‘ngillarni Kashta guli, rangidan, Do‘ppisida keng olamni Yashartirib yangidan Qatim tortar qizgina.

Qizlar bilan suhbat qizg‘in boshlandi. Ularining o‘z ishiga qiziqishi va bi bilan jamiyatga, o‘ziga har jihatdan manfaat kelishiga



Muhtarama ULUG‘OVA, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

ishonchi so‘zlari, ko‘zlaridan yaqqol ko‘rinib turibdi.

Talaba Laziza Ergasheva bir kulib qaradi-da, tikishda davom etib so‘zladi:

— Shu yilning boshlarida kashtachilik to‘garagi ochilganini eshitganda, “ha, bir to‘garak-da” deb o‘ylagandim. Shunchaki qiziqish bilan dugonam ikkalamiz bordik. Ustoz Dilfuza Rahmonovanning jonkuyarlik, mehr bilan tushuntirishlarini tinglab, ish namunalarini



ko‘rib, bu san‘atga mehrim tushdi. Kashta tikishni, andoza asosida ishlashni o‘rganib, birinchi marta mustaqil ravishda ayollar oyoq kiyimiga gullar tikdim. Keyin yirikroq buyurtmalar tusha boshladi. Ikki juft oyoq kiyimi, ikkita sumkaga kashta tikib, 4 million so‘m ish haqi oldim. Hamma darslarda qatnashib, vazifalarni bajarib, yaxshi baholarga o‘qish bilan birga bo‘sh vaqtimda tikkan ishimdan shuncha daromad topsam yomonmi?! Tikishni shunchalar yaxshi ko‘rib qoldimki, hatto uyda ham vaqtim bo‘ldi deguncha bekor o‘tirmay, davom ettirardim, qishloqdoshlarim ham qiziqib qoldi. Shuning uchun o‘zim tug‘ilib o‘sgan Qarshi tumanining Hilol qishlog‘ida kashtachilik yo‘nalishini rivojlantirish niyatidaman.

Bu yoshlar uchun shunchaki mehnat qilish imkoniyati emas, balki kam ta‘minlangan oilalar va nogironligi bo‘lganlar uchun qulay, samarali daromad manbai. Hozircha asosiy e‘tiborni o‘qishga berganim uchun bu rejalarni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘ryapman. Kelajakda Shahrisabz kashtachiligini zamonaviy brend darajasiga ko‘tarish, uni moda yo‘nalishida xalqaro miqyosda targ‘ib qilish maqsadim bor.

— Kashtachilik qadimdan o‘zbek ayollarining nafosat, did va sabrini namoyon etish san‘ati bo‘lib kelgan, — gurgunig davom ettirdi Robiya Murtazoyeva. — Momolarmiz tikilgan har qatim ip, naqshga ma‘no singdirgan. Men shuni his qildimki, kashta tikish jarayonida insonning tafakkuri tiniqlashar, qalbi chiroyli xayollaru ezuq niyatlarga to‘lib, ma‘naviy dunyosi go‘zallashar ekan. Shahrisabz iroqi kashtasi o‘ziga xos naqshlari, nozikligi, rang uyg‘unliklari bilan ajralib turadi. Bu naqshlar

insonning ichki dunyosi hayot va tabiat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biz kashtachilikni o‘rganish asnosida sabr-toqat, mehnatsevarlik, estetik did va milliy qadriyatlarini qalbimizga, hayotimizga singdirayotganimizdan juda xursandmiz. Kashta fikrlashga, ijodkorlikka ham o‘rgatadi.

— Men yana bir gapni aytaymi? — ko‘zlari chaqnab gurgunni qizitdi talaba Feruza Abduxalilova. — Hozir juda ko‘pchilik ota-onalar, ustozlar, yoshi ulug‘ odamlar, mutaxassislar bolalardan tortib, o‘smirlar, yigit-qizlarga cha telefoniga, internetga mukkasidan ketib, keraksiz va hatto to‘g‘ri yo‘ldan adashirishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar, postlar, o‘yinlarga bog‘lanib qolayotgani, vaqtini, sog‘lig‘ini, ruhiy xotirjamligini yo‘qotayotganini tashvish bilan gapiradi. Men kashta to‘garagida tikishni o‘rganib olganimdan buyon boshqa ishlarni iloji boricha vaqtda, tezda bajarishga harakat qilaman, chunki ko‘proq tikishni xohlayman. Aniq maqsadim bo‘lsa, telefoniga qarashga, umuman, xohish-ehtiyojim yo‘q. Bundan o‘zim ham, ayniqsa, oila a‘zolarim juda xursand.

— Hammasi yaxshi, — dedim men. — Ammo sizlarning talaba sifatidagi birinchi darajali vazifalaringiz bilimlarni puxta egallash, tanlagan mutaxasssilingizning yetuk vakili bo‘lish. Kashtachilikka, u orqali pul topishga qiziqib ketib... — gapim oxiriga yetmasdan qizlar nima demochi ekanimni anglab, “Yo‘-o‘q, yo‘-o‘q”, deb kulib yubordi.

— Dugonam Laziza aytganidek, yaqin kelajakda Shahrisabz kashtachiligini zamonaviy brend darajasiga ko‘tarish niyatimiz bor, — fikriga izoh bermoqchi bo‘ldi Bahora Ne‘matova. — Bundan tashqari, kashtachilikka oid maxsus dastur tuzib, nasib etsa, bu go‘zal hunar haqidagi barcha ma‘lumotlarni jamlab, jahon bozorida onlayn hamkorlikni yo‘lga qo‘yamiz. Buning uchun har tomonlama keng, chuqur bilim kerak. Bu bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun AT yo‘nalish bo‘yicha ochilgan to‘garakka qatnashamiz.

Suhbatdoshlarini diqqat bilan eshitayotgan Marjona Xayrullayeva ohista gap boshladi:

— Kashtachilikni o‘rganganimdan juda xursandman. O‘qishimga, sog‘lig‘imga, moddiy ehtiyojlarimni qoplashga katta imkoniyat bo‘ldi. Ham o‘qib, ham mehnat bilan pul ishlash topishga o‘rganish kelajak hayotga poydevor qo‘yish emasmi? Hozir ko‘pchiligimiz nafaqat o‘zimizni ta‘minlayapmiz, balki ot-onalarimizga ham moddiy ko‘mak beryapmiz. O‘ylaymanki, bu hunar bizni bir umr qo‘llab-quvvatlaydi. Tikkan kashtalarimiz xorijga eksport qilinyapti, demak, mehnatimiz xalqaro miqyosda qadrlanayapti.

Ha, “Kichkina demang bizni...” deganlaridek, bu qizlar tikkan kashtalar bilan bezatilgan qalpoq, nimcha, kamzul, ko‘ylak, shippak, etik, tufli, yostiqchil, chopon, hamyon, sumka kabi

san‘at darajasiga ko‘tarilgan yigirmadan ortiq turdagi mahsulotlar, asosan, xorijiy davlatlarga sotilmoqda. Ularining matosi, ipagini olish uchun turkiyalik, belaruslik hamkasblar bilan hamkorlik qilinadi. Anor po‘chog‘i, piyoz, o‘sma, yong‘oq mevasi po‘stidan olingan ranglarda bo‘yalgan va zaytun yog‘i qo‘shib yuvilgan jilokor ipaklarning rangi o‘ngmaydi-urmaydi, choki terilgan munchoqday chiqadi.

Ushbu ma‘lumot iroqi kashta to‘garagi faoliyatiga qiziqishimizni yanada oshirdi: hozir 500 dan ortiq a‘zosi bor, ularning deyarli yarmi 3-5 million so‘m atrofida oylik maosh oladi. Boshqalarga ham mehnatiga yarasha ishbay haq to‘lanadi...

Kashtachilik tarixining asrlarga borib taqalishi, momolarmiz, onalar o‘smirlik yoshiga yetgan qizlariga, albatta, ipak-sabog berib, tikishga jalb qilganining boisi qizlarni shunchaki bir mashg‘ulotga band etish yoki pul topishga o‘rgatish bo‘lmagan. Ildizlari teran bu an‘ananing xosiyatlari ijtimoiy ehtiyoju talablar bilan bog‘liq bo‘lgan deb aytishimiz mumkin. Kashta tikish qizlarning sabr-toqatini, estetik didini, ijodkorligini va mehnat ko‘nikmalarini tarbiyalabgina qolmaydi. Esimda, o‘smirlik yillarimda (o‘tgan asrning 70-yillari) otamning atlas to‘qish firmasida ishlash topgan 60 so‘m maoshi olti farzandli oilamiz a‘zolarining faqat yeb-ichishiga yetardi. Onam erta tongda hovli yumushlarini bajarib qo‘yib, kun bo‘yi tikkan do‘ppilarining puliga bizga kiyim-kechak olib berardi. O‘shanda chevarlar o‘zlari tikib tayyorlagan narsalarini bozorda chiqari sotolmasligi, ularni har doim soliq nazoratchilari quvlab yurib, qo‘lidagi mahsulotlarini tortib olishi, xatgayu sudga solishlariga qaramay, ayollar bu mashg‘ulotni bir kun ham tashlamagani, bozorning chekka-chekkalarida yuragi bezillab yurib, mahsulotlarini sotib kelishi o‘sha paytda xonadonlar uchun bu mehnatdan keladigan daromadning nechog‘liq ahamiyatli, zarurligini his etishga imkon beradi. Ha, katta avlod onalarimiz qiyinchilik, qahatchilik, yo‘qchilik davrlarida ro‘zg‘ordagi yetishmovochniklardan nolib, umidsizlikka tushib, turmushidan ko‘ngilsiz bo‘lib o‘tirmagan. Albatta, aqlu mulohazali erkak bunday ayolini qadrlaydi, unga munosib bo‘lishga harakat qiladi. Kashta tikish oilani moddiy jihatdan qo‘llab, ma‘naviy iqlimini mo‘tadil etgan. Bu an‘ana yemirilgan tuzum davrida ham vodiya, vohada hayot tarziga aylangandi. “Bekorchiqlik bema‘nigarchilik” degan ibora bor. Doim halol mehnat bilan daromad topishga o‘rganigan ayol ortiqcha gap-so‘zlardan vaqtini qizg‘anadi, ishlash charchaganda tiniqch dam olishga harakat qiladi.

Yana bir jihat: ayol hayotining homiladorligi, chaqaloqni dunyoga keltirib, uni suyagi qotqunchika mehru muhabbat bilan parvarishlash, oiladagi qarovga muhtoj bo‘lgan keksalarga qarash kabi o‘ziga xos fasllari bor. Ana shunday davrlarda qo‘lida tikish, to‘qish kabi hunari bor bekalar bo‘sh vaqtlarida sevgan ishlari bilan shug‘ullanishi ayni ko‘ngilli mashg‘ulot-da! Hunarmandlik nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar (erkaklar ham) oilada va jamiyatda yolg‘izlanib, ko‘ngli o‘ksib, ehtiyojmandlikdan yomon kayfiyatga tushib qolishining oldini oladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida mahalliy aholi uchun an‘anaviy bo‘lgan kasbu hunarlarni qayta tiklash maqsadida juda ko‘p tadbirkorlik tashabbuslari yo‘lga qo‘yildi, korxonalar ochildi. Bunday joylarda, asosan, o‘sha hududda yashovchilari ishlaydi, hunar o‘rganadi. Oliy ta‘lim dargohi talabalari esa viloyatning, hatto ko‘shni viloyatlarning shaharu qishloqlaridan kelgan. Iroqi kashta to‘garagi a‘zolari Qashqadaryo kashtachilik san‘atini o‘rganib, uni qator tumanlar, shaharlar hamkorisavarlariga o‘rgatadi, tarqatadi. Ma‘naviy merosimiz durdonalari shu tariqa avloddan avlodga o‘tadi, qiyofamizning betakror yarashlari, milliy o‘zligimiz va go‘zal fazilatlar tarbiyachisi bo‘lib qoladi... Ilmga chanqoq, hunarsevar qizlarni havas bilan kuzatarkanmiz, xayolimizdan shu gaplar nur qatimlari kabi o‘tdi...

Qadriyat

Har bir yurtning o‘ziga xos ma‘naviy qiyofasi, tarixi, madaniyati va an‘analari bor. Surxondaryo, ayniqsa, Boysun tumani ana shunday yuksak va betakror hunarmandlik an‘analari bilan ajralib turadi. Xususan, boysunlik hunarmandlar yaratgan janda matosi azaldan pishiqligi, rangi o‘chmasligi bilan mashhur va xaridorgir bo‘lgan.

— Zamonlar o‘tsa ham jandaning qadriyatini sira kamaymadi, balki rivojlanib bormoqda. Boysunda ushbu noyob mato hali ham an‘anaviy usullarda, qo‘l mehnati bilan to‘qiladi, — deydi hunarmand Hanifa Salimova. — Momolardan meros bunday boyliklarimizga yaqin-yaqingacha hozirgidek e‘tibor yo‘q edi. Ayniqsa, 40-50 yil avval momolarmiz jandani kechalari to‘qigan. Biz ham ularning yonida o‘tirib, diqqat bilan kuzatardik. To‘qishga harakat qilardik. Bilmagani joylarimizni momolarmiz qunt bilan o‘rgatardi.



Boysun tumanidagi folklor jamoalari liboslari ham aynan janda matosidan tayyorlanadi.

— Jandadan tikilgan liboslar odamni ko‘rkam ko‘rsatadi. Uning har bir naqshi, har bir ipida xalqning asrlar davomida shakllangan estetik qarashlari, tabiiy muhit bilan munosabati va hayot tarzi mujassam.

Boysun san‘atini janda matosisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, — deydi Boysun xalq etnografik ansambli a‘zosi Bo‘riqul Jumayev. — Badiiy jamoamiz ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan kuy-qo‘shiq va jozibador raqslarni ijro etishda jandadan tikilgan liboslar kiyib, xalqimiz mehnini qozon-yapti. Faoliyatimiz davomida turli xalqaro

tadbir va tanlovlarda ham ishtirok etyapmiz. Unda milliy cholg‘ularimiz va ohanglarimiz qatori liboslarimiz xorijliklarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Boysun tumanidagi Sariosiyo qishlog‘ida yashovchi usta Musulmon Qahhorov to‘qiydigan janda matosida to‘q sariq, to‘q qizil va oq-qora chizilgari navbatma-navbat keladi. Bu rangdagi iplar umumiy qiyofada usta yashaydigan qishloq tabiatini ko‘rsatadi. To‘quvchi shu tariqa jandada qishlog‘ining o‘rmonsiz tog‘ yon bag‘irlarini, oftobda kuygan toshloq yerlarini, jarliklarning chuqur soyalarini aks ettirishga uringan. Shu ma‘noda, janda oddiy mato emas. Balki xalqning baxt-saodati, orzulari va san‘atini birlashtirgan muhabbat va hurmat simvoli. O‘rqli ming yillik an‘analari tikirligini his qilish, milliy o‘ziga xoslik va betakror folklor san‘atini anglash mumkin.

— Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida janda to‘qib, nufuzli festival va tanlovlarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallayapman. Hozir bu hunarni yoshlarga ham o‘rgatayapman.

Mahsulot tabiiy ranglardan tayyorlanadi. Xorijlik sayyohlar ham qiziqib, xarid qilaypti, — deydi boysunlik hunarmand Olim Oripov.

Mamlakatimizda hunarmandlikni keng rivojlantirishga qaratilgan yuksak e‘tibor natijasida Boysun tumanida ham o‘z faoliyatini kengaytirayotgan mohir hunar egalari ko‘paymoqda. Agar 2018-yilda tumanda 30 hunarmand rasmiy faoliyat yuritgan bo‘lsa, hozir ular safi 500 nafardan oshgan. O‘ndan ortiq mahalla xalq hunarmandligining turli yo‘nalishlariga ixtisoslashgan bo‘lib, hududning o‘ziga xos drayveriga aylangan. Ular aksari janda matosini tayyorlaydi.

Bugun xorijlik sayohatchilar ham Boysunda to‘qiladigan jandaga katta qiziqish bildiriyapti. Ular mahalliy ustalar bilan bevosita muloqot qilib, mato to‘qish jarayonini kuzatib, hatto jarayonda ham ishtirok etmoqda.

— Ko‘p yillik tarixga ega, o‘ziga xos milliy liboslar millatning urf-odatlarini ijtimoiy munosabatlari, nafosat hamda estetik normalarni o‘zida aks ettiradi. Vohadagi arxeologik izlanishlar bu hududda

to‘quvchilik va tikuvchilik qariyb 3,5 ming yillik tarixga ega ekanini isbotlaydi, — deydi Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimi To‘xtash Annayev.

Surxon vohasi yurtimizning janubida joylashgan. U issiq iqlimi bilan ajralib turadi. Vohada kiyimlarning yorqin, ochiq bo‘yog‘i, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori didi va o‘ziga xos tabiiy iqlimda yashashidan darak bergan. Voha ayollari kiyimlari an‘anaviy-mahalliy ko‘rinishlarini mukammal saqlagan, ayollar kiyimida o‘ziga xos naqshlar, bezaklar, hoshiyalar ko‘p qo‘llanilgan.

Bu nafaqat o‘tmish bilan bog‘liq xotira, balki milliy o‘zlik va madaniy merosning uzviy davomidir. Shu bois, san‘atning bu turini saqlash va rivojlantirish milliy madaniyatimizni kelajak avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyati kasb etadi. Jandaning har bir rangida millat ruhi, xalq hayoti, hunarmandlik falsafasi mujassam. Shuning uchun bu boy merosni anglash, qadrlash va kelajak avlodga yetkazish har birimiz uchun ham ma‘naviy burch, ham milliy mas‘uliyatdir.

Sarvar TO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1246.

34211 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Akbar Qarshiye
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy